HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research
(HSR-ICMAR) 2026
https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference

SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI

Azimova Hulkar Egamberdiyevna
"Buxgalteriya hisobi va auditi" kafedrasi dotsent v.b.
ORCID: 0009-0007-4468-6533
azimovakhulkar@gmail.com. tel. 99850 040 55 54
https://doi.org/10.5281/zenodo.21411441

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat sohasiga yo'naltirilgan investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari haqida bayon etilgan. Xitoy, Koreya, Germaniya, Singapur kabi xorijiy davlatlarning sanoat siyosati va infratuzilma modellaridan olingan saboqlar ko'rib chiqiladi va ularni mintaqaviy ya'ni O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llash bo'yicha tavsiyalar taklif etiladi. Shuningdek, maqolada statistik ma'lumotlar asosida sanoatning YAIMdagi ulushi, investitsiyalar tuzilishi, hamda xalqaro tashkilotlar tahlillaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsion resurslar,xorij tajribasi,sanoat siyosati,mintaqada qo'llash,milliy iqtisodiyot,modernizatsiya,investitsiyalar,xalqaro tajriba,resurslarning potensial salohiyati,infratuzilma

Kirish. Milliy iqtisodiyotning modernizatsiyalashda sanoat sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalar, ish o'rinlari yaratish va yalpi qo'shilgan qiymatni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq investitsion resurslar samaradorligi hamisha yuqori bo'lmaydi: noto'g'ri maqsadlash, past texnologiya darajasi, infratuzilma zaifligi va kambag'allik bilan bog'liq xatarlar resurslarning samarali aylanishini cheklaydi. Ushbu maqola maqsadi sifatli xalqaro tajribalarni tahlil qilib, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan aniq siyosat tavsiyalarini ishlab chiqish. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, quvvatlarni kengaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida moliyaviy mablag'lar mablag', texnika, texnologiya va intellektual salohiyatni sanoat korxonalariga yo'naltirish jarayoni sanoat sohasida investitsion resurslardan foydalanish hisoblanadi.[1] Ushbu jarayon asosiy vositalarni yangilash, xom-ashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Investitsion resurslardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

a) Yangi dastgohlar, uskunalar sotib olish va sexlar qurish.orqali asosiy kapitalga investitsiyalar kiritiladi

b) Eski texnologiyalarni samaraliroq va tejamkorlari bilan almashtirishi natijasida modernizatsiya qilinadi

v) Ilmiy-tadqiqot ishlariga mablag' kiritish va yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish natijasida innovatsiyalar hamda logistika, omborxona va energiya tizimlarini yaxshilash orqali infratuzilmani rivojlantirishga erishiladi. Sanoatda investitsiyalarning ahamiyati shundan iboratki,ishlab chiqarish hajmini oshirish,mahsulot turini va hajmini ko'paytirish,sifatni yaxshilash,xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish, xarajatlarni kamaytirish va ekologik toza ishlab chiqarishga o'tish. amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar: Sanoat sohasoda investitsion resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarining yanada kengayganligi,investitsiya muhiti,investitsiya siyosatining yetarli darajada amalga oshirilayotganligi sababli investitsiyalarning ulushi yildan-yilga oshib borayotganligini quyidagi statistik ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin. 2025 yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga to'g'ri kelib, uning hajmi 947,2 trln so'mni tashkil etdi. Bu umumiy sanoat ishlab chiqarishining 86 foizini tashkil etgan. Milliy statistika qo'mitasi e'lon qilgan dastlabki ko'rsatkichlarga muvofiq, 2025 yilda mamlakat sanoat ishlab chiqarishida asosiy "og'irlik" ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi ishlab chiqarish hajmi 947,2 trln so'm bo'lib, sanoat tarkibidagi ulushi 86

[1] **Vaxobov A.B., Xajibakiyev Sh.X.,Muminov N.G. "Xorijiy investitsiyalar", O'quv qo'llanma. -T.: "Moliya". 2010. -324 b**

foizni tashkil etgan.Sanoat ishlab chiqarishi hajmi ishlab chiqarish sanoatida 947,2 trln so‘m (86 foiz)ni,tog‘-kon va ochiq konlarni ishlash da 77 trln so‘m (7 foiz)ni,elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda 70,8 trln so‘m (6,4 foiz)ni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 6,1 trln so‘m (0,6 foiz)ni tashkil etgan. Yuqoridagi ma’lumotlarda qayd etilganidek, 2025 yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi taxminan 101,1 trln so‘mni tashkil etgan. Ishlab chiqarish sanoatining yuqori ulushi sanoat tarkibida qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish yo‘nalishlari asosiy o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi.Shuningdek, 2025 yilda O’zbekistonda o’zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 43,1 mlrd dollarni tashkil etib,bu ko’rsatkich 2024 yil bilan taqqoslanganda 24 foizga ko’paygan. Investitsiyalarning asosiy qismini to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar hajmi 38,2 mlrd dollar, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan esa 4,9 mlrd dollarlik mablag’lar jalb etilgan. Xitoy, Rossiya, Turkiya,Saudiya Arabistoni kabi davlatlar bilan izchil islohotlar amalga oshirildi. Natijada ushbu davlatlar bilan amalga oshirilgan qo’shma loyihalar natijasida investitsiyalar kirib kelish oqimi yanada kengaydi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi[2]. Birgina Andijon viloyatida 12 mlrd so’m evaziga amalga oshirilgan investitsiyalar natijasida 50 ta savdo,xizmat ko’rsatish va ovqatlanish ob’yekti tashkil etilishi natijasida 120 nafar fuqaro doimiy ish bilan ta’minlangan. Endi quyidagi mamlakatlarda investitsiya siyosati hamda yondashuvlar asosida sanoatda investitsiyalaridan samarali foydalanish holatini ko’rib chiqamiz. Janubiy Koreyada dastlab eksportga yo‘naltirilgan sanoatlashtirish siyosati natijasida

Koreya modeli (1950–1990) yillarda davlat tomonidan maqsadli manbalarni yo‘naltirish, eksportni rag‘batlantirish va kasb-hunar hamda texnik ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori texnologiyali sanoatni yaratgan. Davlat banklari, eksport kreditlari va qo‘shma korxonalar orqali investitsiyalar samaradorligi oshirilgan bo’lib,mintaqalarda mahsulotlarni eksportga moslashtirish va davlat-dasturlari bilan kichik korxonalarni integratsiyalashda katta e’tibor qaratilgan.[3] Germaniya misolida yuqori darajadagi avtomatizatsiya, sanoat raqamlashtirish va kuchli ta’minot zanjiri hamda kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymat yaratilgan bo’lib,bu yondashuv natijasida raqamli modernizatsiya va klasterlarni rivojlantirish orqali investitsion samaradorlik yanada oshirilgan. Xorijiy tajribadan kelib chiqadigan asosiy omillar va ularning mintaqada qo‘llash imkoniyatlari haqida so’z yuritsak, maqsadli va shaffof nvestitsion siyosat oqibatida tashqi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya imtiyozlarini maqsadga yo‘naltirish va natijalarni monitoring qilish resurslarning samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur mintaqada mavjud sektor va loyihalar bo‘yicha ish o‘rinlari, eksport qiymati, innovatsiya hissasi) kabi mezonlar asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Xulosa va takliflar: Sanoat sohasida investitsion resurslardan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish va eksport salohiyatini oshirishning imkoniyatlari yanada kengayadi. Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlar asosida xulosa qilib aytganimizda har bir hududda investitsion resurslarni samarali taqsimlash natijasida yuqori texnologiyalar, energiya samaradorligi va xom-ashyon chuqur qayta ishlashga yo'naltirish orqali sanoat raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin hisoblanadi.

Sanoat sohasida investitsion resurslardan foydalanish bo'yicha asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

---

[2] **O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni PD-60 son 28 yanvar 2022 yil**

[3] **World Bank — Uzbekistan country profile; “The promise of services-led growth in Uzbekistan” (country brief, 2024). (World Bank).**

Birinchidan:Innovatsion modernizatsiyani amalga oshirishda nvestitsiyalar eskirgan uskunalarni almashtirish va "Industriya 4.0" texnologiyalarini joriy etishga yo'naltirilishi lozim;

Ikkinchidan: Energiya samaradorligi bo'yicha resurslarni tejovchi va ekologik toza texnologiyalarga investitsiya kiritish ishlab chiqarish tannarxini yanada pasaytirishiga e'tibor qaratish;

Uchinchidan: Diversifikatsiya nuqtai nazaridan faqat xom-ashyo eksportiga emas, balki tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yanada ko'proq sarmoya jalb qilish;

To'rtinchidan: Investitsiyalarning bir qismi ishlab chiqarishni boshqaradigan kadrlar malakasini oshirishga yo'naltirilishi lozim;

Beshinchidan: Har bir jalb qilingan investitsiya birligi ishlab chiqarish hajmi va soliq tushumlarining o'sishiga xizmat qilishi uchun tizimli monitoring olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni PD-60 son 28 yanvar 2022 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasi. 2026 yil 26 dekabr
3. Vaxobov A.B., Xajibakiyev Sh.X.,Muminov N.G. "Xorijiy investitsiyalar", O'quv qo'llanma. -T.: "Moliya". 2010. -324 b
4. World Bank — Uzbekistan country profile; "The promise of services-led growth in Uzbekistan" (country brief, 2024). (World Bank).